

Bolalar Muqaddas Kitobi  
Tasvirlab beradi



Gido'nning  
kichiik  
qo'shini



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:

Janie Forest

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:

Ruth Klassen

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children

[www.M1914.org](http://www.M1914.org)

BFC

PO Box 3

Winnipeg, MB R3C 2G1


Canada

©2013 Bible for Children, Inc.

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.

Lekin u sotilmaydi.





Yoshua vafot  
etgandan so'ng  
Isroilliklar Xudoga  
itoat etmay qo'yishdi.  
Shuning uchun Xudo  
ularni er va uylarini  
Midiyonliklar yoqib  
yuborishiga  
yo'l qo'yib  
berdi.

Isroilliklar g'orlarda  
yashashga majbur  
bo'lishdi.




Gido'n ismli Isroillikni bug'doy  
ekadigan yashirin joyi bor edi. U  
g'allani katta daraxt tagida,  
sharob qisgichda yashrincha  
maydalardi. Midiyonliklar  
buni bilishmasdi,  
lekin Xudo  
bilardi.


Xudo Gido'nga xabar  
etkazish uchun  
farishtasini  
jo'natdi.



Xudo Gido'nga otasini butlarini buzib, o'rniga Haqiqiy Xudoga sajdagoh' qurishni buyurdi. Gido'n shunday qildi.



Shuningdek Xudo Gido'n Isroil qo'shiniga ham etakchilik qilishini hoxladi. Ammo u qo'rqardi. Xudo u bilan bo'lishini bilish uchun Gido'n Xudodan biror alomat ko'rsatishini so'radi. So'ng u qo'y terisini erga yoyib qo'ydi.






Gido'n  
ibodat  
qilib,  
shunday  
dedi: "Agar  
ertalab teri  
nam bo'lib, er quruq

bo'lsa, Xudovand Sen men orqali  
Iroilliklarni qutqarishingga ishonaman!"  
Ertalab turib qarasa, teri nam,  
er esa quruq edi!




Ammo Gido'n hamon  
shubhalanardi. Endi u Xudodan  
erga namlik yoborib, teri quruq  
bo'lishini so'radi. Ertalab  
qarasa, shunday edi.






Gido'n 32000 qo'shin yig'di, lekin Xudo uni 300 taga qisqartirdi. Xudo Isroilliklar "Biz o'z kuchimiz bilan g'olib bo'ldik!" deyishini istamadi. Chunki yagona Qutqaruvchi bu Xudovand edi.



Gido'nda hamon qo'rquv bor edi. Albatta Xudo buni bilardi. Shuning uchun Xudo Midiyonlik bir lashkar tushida bir burda non Midiyonliklarni chodirini ustiga tushib, uni buzganini Gido'n yashirincha eshitishiga yo'l qo'ydi.




Bu tushni eshitgan boshqa Midiyonlik  
lashkar qo'rqib ketdi. U: "Bu Gido'nni  
qilichi!" -dedi. Bularning barisini eshitgan  
Gido'n, Xudo unga aniq g'alaba berishiga  
ishondi.



Gido'n kechasi hujum qilishni rejalashtirdi. U lashkarlarining har birini qo'liga bittadan burg'u va bo'sh ko'za berdi. Ko'zalarni ichida esa bittadan masha'la bor edi.





Gido'nni buyrug'iga binoan ular dushman qala'siga yaqinlashganda, bug'u chalib, ko'zani sindirishib, masha'lni ko'tarib, baqirishdi. Bundan qo'rqib ketgan Midiyonliklar qochib ketishdi.



Bunday g'alabadan so'ng Isroilliklar Gido'n ularga etakchilik qilishini so'rashdi. Ammo u: "Sizlarga men emas, Xudovand etakchilik qiladi!" -dedi. U faqatgina Xudovand barchaning

ustidan Hukmron ekanligini bilardi.



Gido'nning kichiik qo'shini

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan


...dan topilgan

Hakamlar 6-9

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130





Hikoya tugadi

15

60





Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:  
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!  
Yuhanno 3:16

